



## QADIMGI TURKIY ADABIYOTDA MIFOLOGIK TALQIN

**Lobar Allamberganova,**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: **H.Allamberganov,**

*Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti*

*Annotatsiya: Asotiriy ifoda faoliyat maydonini aynan bevosita munosabatlar uyushmasi tayin etishini inobatga olsak, tasvir shakli va uslubi vazifadoshlikdan o'sib chiqishi ayonlashadi.*

*Kalit so'zlar: mifologik talqin, voqealik, tahlil, atama, personaj.*

Mifologik talqin o'ziga xosligi muntazam tasavvur yaxlitligiga tayanadi. To'g'rirog'i, epik muhokama ruhiyat, ong hamda ma'rifat uyg'unligini taqozolaydi. Unda ma'naviy va moddiy aloqa ittifoqi tushuncha ijtimoiy yo'naltirilganlik darajasini namoyish qiladi. Mohiyatan voqelikni idrok etish tizimi **kuzatish-ko'rsatish-baholash** uzviy bosqichlarini sharhlaydi. Asotiriy ifoda faoliyat maydonini aynan bevosita munosabatlar uyushmasi tayin etishini inobatga olsak, tasvir shakli va uslubi vazifadoshlikdan o'sib chiqishi ayonlashadi. Atama, aniqlovchi hamda tushuncha zichligi materiya ilg'amiga yo'l ochadi. Aynan mifopoetik tafakkur hayotiy ziddiyatlarning qamrovi bilan kifoyalanmaydi, balki tafsilot va tasavvurlararo mantiqiy uzluksizlikni ochib berishga intiladi. Shu ma'noda, tahlil miqyosi muayyan tarixiy-madaniy vaziyatda talqin vazifadoshligini shakllantiradi:

Shu zamon G'ayrat boshini ko'tarib, salom beribdi. Xizr G'ayratning salomiga alik olib, g'oyib bo'libdi. Tursunbek bilan G'ayratbek quchoqlashib ko'rishib birga shaharga qaytib kelishibdi. Ertasi podshoning yomon niyatlarini xalqqa fosh etib, otasi o'rniga o'zi podsho bo'libdi. G'ayrat vazir bo'libdi. Qirq kecha, qirq kunduz to'y – tomosha qilib suv qizini qaytadan nikohlab olib, murod – maqsadiga yetibdi. Ular yaxshi turmush qurib olibdi, men bo'lsam bolalarim yig'lab qolmasin, deb tezda shahrimga qaytib keldim.[1]

Lavhada Xizr va Suv qizi obrazlari ilohiy-g'ayritabiiy mohiyatni belgilaydi. Odatda, turkiy xalqlar mifologiyasida Xizr timsoli omad ramzi sifatida talqin etiladi. Uning inson ko'ziga ko'rinishi baxt-saodat keltiradi. Ertakda personajga qo'shimcha estetik yuk ortiladi. Qahramon toshga aylanib qolgan yigitni asliga qaytaradi va g'oyib bo'ladi. Xaloskor epizodik rol o'ynasa-da, ezgulik tantanasini ta'minlaydigan qudratga evriladi. Suv qizi fabula va konfliktni harakatga keltiradigan tayanch obraz, garchand, u faoliyatsizlikka mahkum etilsa-da, asosiy tugun chizig'iga bevosita-



bilvosita daxldorlik kasb qiladi. Hayotni yaxlit tasavvur qilish silsilasida sirli-jozib jumboqlarga javob axtarish hissi ustuvor xususiyatni jamlaydi. Konstruksiya bir tomondan, ajdodlarimizning boy tajribasi hosilasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, mohiyatni ta'kidlaydigan hamda mantiqan to'ldiradigan badiiy vazifadoshlikni shakllantiradi.

“Mifologik atama, personaj va tafsilotlar majoziy manzara hamda ramziy mohiyat kasb etarkan, janriy-uslubiy strukturani ta'kidlaydi. Binobarin, mifologizm faol struktural birlik sifatida matnda ramziy-majoziy-badiiy shartlilik bosqichlarining yangi poetik maydoniga o'tadi hamda unga bog'liq ravishda yo'nalish va janrga moslashadi”, [2] - e'tirof etadi munaqqid M.Polyakov. Binobarin, tasavvur ibtidosi inson dunyoqarashi sajiyasidan o'sib chiqadi, mifopoetik talqin jamiyat quvvat-hofizasini belgilaydi. Uning “majoziy manzara hamda ramziy mohiyat kasb etishi” ham tarixiy taraqqiyot bosqichi, ham timsoliy tafakkur darajasini tayinlaydi. Shu ma'noda, har qanday mifologik talqin motivizatsiya hosil qilishi shart. Unda g'oyaviy markaz tasvir mustaqilligiga chek qo'yib, zamon va odamzod munosabatlari mujassamini ruhiy muhokama tadqiq sahniga chiqaradi:

Ko'hiqofda yashaydigan Semurg' kunlardan birida parilar podshosining majlisida o'tirgan ekan. Zol uning esiga tushib qolibdi. Chunki bu qush dunyoda bo'ladigan voqealarni bilar ekan. Zolning tug'ilish muddati, uning olamdagi voqealarni o'n yil ilgari biladigan hukmron bo'lishi va ming yil yashashi Semurg'ga ma'lum ekan. Semurg' hisoblab ko'rsa, Zolning tug'ilganiga yetti kun bo'libdi. Tekshirib ko'rsa, Zol Malikaning yonida yo'q emish. Malika bo'lak bolani emizib yotgan emish. Semurg' tezda to'qayga yetib kelib, bolani topibdi. Uyiga olib kelib, kiyik va echki suti bilan boqib, Zolni katta qilibdi. Zol Semurg' oshyonida o'n to'rtga kiribdi va ilm o'rganibdi. Qirq yil o'qigan kishilar bilan baravar bo'lib olibdi. [3]

Odatda, sehrli ertaklarda qahramonga yordam berish va uni qutqarish motivi sehrli qush nomiga payvandlanadi. Mifolog noyob kattaligi va g'ayritabiiy kattaligi va noyob xislatlari bilan ajralib turadi. Tasvirda Semurg' butun olamda bo'layotgan hodisalarni bilib turadigan bashoratchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. “Rustam” ertagida parilar mamlakati tavsiflansa ham, ular passiv mifologema vazifasini bajaradi. Qush Zol tug'ilishi, favqulodda qudratga ega bo'lishi hamda ming yil mamlakatni boshqarishidan xabardor edi. Lekin uni Malika yonida ko'rmagandan so'ng, shahzodaga yordamga oshiqadi. To'qaydan keltirilgan bolakay qush oshyonida tarbiya oladi. Kiyik va echki suti bilan boqilgan yigit alpqqomat pahlavonga aylanadi. Uning ming yil hukmronligi mamlakatni saodatga yetaklaydi. Mubolag'a qatida xalqning asriy orzusi o'z ifodasini topgan. Kishi moliga suq, shafqatsiz va zolim



hukmdorlardan bezgan aholi mard, tanti va adolatparvar podshohga ehtiyoj sezadi. Ezgulik tantanasiga ishonch hissi tasavvurdan ertakka ko'chadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Semurg'ga hamisha ijobiy kuch-qudrat timsoli vazifasi yuklatiladi. U xaloskor, yovuzlikdan ustun va sehrli mifolog hisoblanadi. Mazkur xususiyatlar yig'indisini "Uch og'a-inilar", "Semurg'", "Kenja botir", "Rustam" singari o'zbek xalq sehrli ertaklarida kuzatish mumkin.

Umuman, syujet hamda motivizatsiya an'anaviyligi ertak janri mifologik tabiatini belgilaydi. Qahramon sehrli olami betakrorligi, bayon usuli ravonligi, aniq ibtidoiy tasavvur tanlovi joriyligi va maishiy tafsilotlar qamrovi tafovuti millat madaniyati sajiyasini dalolatlaydi. Shunga qaramasdan, badiiy shaklda o'sish-o'zgarishlar tizimi odamzod dunyoqarashi muntazam murakkablashib borishini tasdiqlaydi. Timsolning mushohada, ma'rifat va ruhiyatga evrilishi voqelikni baholash mezonlari ustuvor ahamiyat kasb etganligiga mantiqiy urg'u beradi. Tasvir va tasavvur imkoniyatlarining real hodisot xususiyatlari bilan o'zaro to'qnashuvi odatiyligi, yuzakiligi hamda cheklanganligi masala mohiyatini yanada oydinlashtiradi. Binobarin, ilohiy-mifologik tasavvurlar ifodasi, maishiy tafsilotlar batafsilligi va janrni oydinlashtiradigan rivoya asotiriy yaxlitligi qahramon faoliyatida o'z maromiga yetadi. Unda asosiy e'tibor alaloqibatda hayotni idrok etish darajasi – baholash mezonlari joriyligiga borib taqaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek xalq ertaklari. Sehrli ertaklar. –T.: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 49.
2. Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. –М.: Советский писатель. 1978. – С.269.
3. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O'zbek folklori. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2020.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010.
5. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Ro'zimboyev S., Ro'zmetov H. Folklor atamalari qisqacha lug'ati. – Urganch, 2007.